



“8 GB” va “21 GB” aksiyalarini o‘tkazish va ularda ishtirok etish shartlari

1. Ushbu shartlar “8 GB” va “21 GB” aksiyalarini (keyingi o‘rinlarda - Aksiyalar) o‘tkazish va ularda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyalarning amal qilish hududi - O‘zbekiston Respublikasi, “O‘zMobayl” filialining GSM standarti tarmog‘i.
3. Aksiyalarda mobil budget xizmatini faollashtirgan jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etishi mumkin (M2M va UNITS TRga ulangan abonentlar bundan mustasno).
4. Aksiyalar doirasida abonentlarga amal qilish muddati cheklangan Internet-paketlar taqdim etiladi. Internet-paketning amal qilish muddati tugagandan so‘ng, ushbu guruhdagi yangi Internet-paket faollashtirilmasa, megabaytlar qoldig‘i saqlanib qolinmaydi.

T/r	Aksiyalar o‘tkazilishi muddati	Paket	Resurs	Qiymati (s‘om)	Amal qilish muddati (kun)
1.	2024-yil 7-martdan 10-martga qadar	8 GB	8 192 MB	8 000	5
2.	2024-yil 20-martdan 24-martga qadar	21 GB	21 504 MB	21 000	10

5. Amalda bo‘lgan aksiyadagi Internet-paketni uzaytirish keyingi bir xil turdag'i (bir xil nominalli va MB hajmli paketlar) aksiyadagi Internet-paketni sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.
6. Paket jismoniy shaxslar tomonidan USSD-buyruq, SMS, Call-markaz operatorlari, UZTELECOM savdo va xizmat ko‘rsatish ofislarida, “MyUZTELECOM” mobil ilovasi yoki Telegram-bot https://t.me/utc_uzbot orqali ularadi.
7. Yuridik shaxslar UZTELECOM savdo va xizmat ko‘rsatish ofislarida va Call-markaz orqali xizmatga buyurtma beradilar, “Mobil budget” xizmati ulangan bo‘lsa, ularish USSD-so‘rov, SMS, mobil ilova orqali amalga oshiriladi.

Paket	Faollashtirish t‘ogrismida ma’lumot olish uchun USSD-so‘rov	Faollashtirish uchun USSD-so‘rov	Holatni tekshirish	SMS-so‘rov orqali
8 GB	*500#	*500*1#	USSD *100*2#, *107#.	8 sonini 9999 ga
Aksiya 8 GB – 8 000 so‘m (5 kun/ 5 dney)			1.faollashtirish/aktivatsiya	
21 GB	*500#	*500*2#	USSD *100*2#, *107#.	8 sonini 9999 ga
Aksiya 21 GB – 21 000 so‘m (10 kun/ 10 dney)			1.faollashtirish/aktivatsiya	

8. Keyingi bir xil turdag'i Internet-paket faollashtirilganda megabaytlar qo'shiladi.
9. Bir xil turdag'i bo'lmagan aksiadagi paketlar (har xil nominalli va MB hajmli paketlar) faollashtirilganda, megabaytlar qo'shilmaydi va paketlarning amal qilish muddati har bir paket uchun alohida belgilanadi.
10. Abonent bir vaqtning o'zida paketlardan bir nechtasini faollashtirishi mumkin, paketlar sarflanishi ularni faollashtirish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.
11. Abonent raqami yoki tarif rejasি o'zgartirilganda xizmatni taqdim etish shartlari o'zgarmaydi.
12. Resurslar sarflanishi ustuvorligi:
 1. "Kunlik" (kunduzgi, non-stop).
 2. Bonuslar:
 - "Tug'ilgan kun";
 - "MyUZTELECOM" mobil ilovasi bonuslari.
 3. "8 GB"/"21 GB" aksiyasi bo'yicha paket.
 4. Tarif rejasи doirasidagi Internet-trafik.
 5. Qolgan sotib olingan paketlar.
13. Mobil raqam yoki tarif rejasи o'zgartirilganda ("UNITS" seriyasining tarif rejasiga o'tishdan tashqari) xizmat ko'rsatish shartlari o'zgarmaydi.
14. Xizmat quyidagi tarif rejalariga ulangan abonentlar uchun amal qiladi:
Jismoniy shaxslar uchun:
"Aloqachi", "Yoshlar", "Oddiy 10", "TA'LIM", "Maktab", "Street", "OnLime", "Flash", "Ishbilarmon", "Street Upgrade", "Flash Upgrade", "C1", "C2", "C3", "C4", "E'ZOZ", "Salom", "Salom Plus", "Step", "Traffic", "Uzmobile 1200", "Uzmobile 4000", "Construktor", "Uzmobile VIP", "Komfort", "Milliy 10/15/40/50/70/100/150", "Barakali 22/33/44/55/77/111", "Royal".
- Yuridik shaxslar uchun:
"Xizmat 1/2/3", "Business Voice/25/35/50/70", "Budget basic", "Oddiy 10", "Budget 400", "TA'LIM", "Budget 1500", "Ishbilarmon", "C1", "C2", "C3", "C4", "Salom", "Salom Plus", "Step", "Traffic", "Uzmobile 1200", "Uzmobile 4000", "Business 500", "Business 2500", "Constructor", "Uzmobile VIP", "Milliy Biznes 25/30/40/55/75", "Business Royal".
14. Aksiya o'tkazilishi va unda ishtirok etish shartlari bo'yicha ma'lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali e'lon qilinadi.
15. "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi Aksiya shartlariga o'zgartirish kiritish huquqiga ega va ushbu haqda tegishli ma'lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali ma'lum qilinadi. Ishtirokchilar Aksiya shartlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilganligini Kompaniyaning mazkur rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari mumkin.